



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 10-iyul

158-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-maydagi 330-sonli qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 23-iyundagi 318-11-0-Q/25-sonli qarori to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiysi to'g'risida"gi Qonunining 6, 21-moddalariga asosan hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-maydagi 330-son "O'zbekiston Respublikasining "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida" 2025-yil 27-maydagi 330-sonli asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 23-iyundagi 318-11-0-Q/25-sonli qarori qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.O'zbekiston Respublikasining "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi Qonuni (keyingi o'rnlarda - Qonun) ijrosi yuzasidan 2025-yilning 30-aprel holatiga 1 234 ta mahalla fuqarolar yig'inidagi 247 mingdan ortiq ko'chmas mulk obyekti xatlovdan o'tkazilgani, "E'tirof" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga (keyingi o'rnlarda - avtomatlashtirilgan axborot tizimi) 99 mingga yaqin obyekt joylashtirilgani, 200 dan ortiq obyektga nisbatan huquqlar e'tirof etilgani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3.Davlat kadastrlari palatasi Farg'ona tumani filiali (N.Otajonov):

bir oy muddatda reja-jadval asosida hududlarda xatlov o‘tkazilishini yanada jadallashtirish maqsadida ko‘chmas mulk obyektlarini joyiga chiqqan holda xatlovdan o‘tkazishga shartnoma asosida qo‘srimcha xodimlar jalb qilinishini ta‘minlasin hamda doimiy ravishda ularning malakasini oshirib borsin.

Qonunning 12-moddasi beshinchi qismida belgilangan talabga muvofiq har bir yer uchastkasiga alohida yondashgan holda yer uchastkasining bino va inshootlar mavjud bo‘lmagan, ekin ekiladigan qismini dehqon xo‘jaligi yoki tomorqa xo‘jaligi yuritish uchun belgilanishini ta‘minlasin;

Qonunning 5-moddasi talablariga muvofiq tegishlicha ijara va mulk huquqini e‘tirof etish masalasi ko‘rib chiqiladigan yer uchastkasining, bino va inshootning elektron yig‘majild hujjatlarini ushbu yer uchastkasi bino va inshootlar bilan band bo‘lgan taqdirdagina avtomatlashtirilgan axborot tizimiga joylashtirsin.

Bunda yer uchastkasining chegarasi ko‘chmas mulk obyektiga kirish qismidan boshlab aniqlanadi.

Bir hafta muddatda vakolatli tashkilotlarga avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanishga to‘liq imkoniyat yaratib bersin.

4.Tuman hokimi o‘rnbosari M.Qodirxonov tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

Qonun talablariga muvofiq huquqni e‘tirof etish masalasi ko‘rib chiqiladigan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan binolar va inshootlar tuman hokimligi hamda tegishli vakolatli tashkilotlar tizim tashkilotlari tasarrufida (ixtiyorida) bo‘lgan kanallar va boshqa suv xo‘jaligi inshootlari hamda shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko‘chalar, xo‘jalik avtomobil yo‘llarining tegishli mintaqasi hamda muhofaza zonalari hududida joylashgani yoki joylashmagani haqidagi ma‘lumotlarning avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritilib (biriktirilib) borilishini ta‘minlasin.

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqini hamda unda qurilgan bino va inshootga bo‘lgan mulk huquqini e‘tirof etish to‘g‘risidagi qarorlari qabul qilinganidan so‘ng uch kun muddatdan kechiktirmasdan yer uchastkasining ijara shartnomasi tuzilishini ta‘minlasin;

hududlarda tegishli tashkilot va korxonalar bilan birgalikda qonun ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar natijasi bo‘yicha har oyda kamida bir marotaba yig‘ilishlarda tanqidiy muhokama qilib borilishini yo‘lga qo‘ysin.

Qonun tatbiq etiladigan ko‘chmas mulk obyektlari sug‘oriladigan yerlarda joylashgan taqdirda, ushbu yer uchastkalarining yer fondi toifasini o‘zgartirish bo‘yicha takliflarni belgilangan tartibda Farg‘ona tuman hokimligiga kiritib borsin.

5.Farg‘ona tumani Soliq inspeksiyasi (I.Sharopov):

Qonunga muvofiq huquqni e‘tirof etish masalasi ko‘rib chiqiladigan ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha yer solig‘i va mol-mulk solig‘ini hisoblashda tuman (shahar) soliq organlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 88-moddasi talablariga qat‘iy rioya qilinishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

6.Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasiga bir hafta muddatda Qonunning 23-moddasiga muvofiq:

yakka tartibdagi uy-joylar qurish uchun ortiqcha egallangan yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqining 0,01 hektar maydon uchun o‘rtacha bozor qiymatini – elektron onlayn-auksion savdolarida mulk huquqi asosida realizatsiya qilingan yer uchastkalarining o‘rtacha narxidan kelib chiqqan holda;

noturar obyektlar qurish uchun ortiqcha egallangan yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqining 0,01 hektar maydon uchun o‘rtacha bozor qiymatini - tegishlicha elektron onlayn-auksion savdolarida tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish hamda kichik sanoat va yoshlar sanoat hamda tadbirkorlik zonalarida faoliyat ko‘rsatish maqsadlarida realizatsiya qilingan yer uchastkalarining o‘rtacha narxidan kelib chiqqan holda;

dehqon yoki tomorqa xo‘jaligi yuritish uchun rasmiylashtirib beriladigan ortiqcha egallangan yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqining 0,01 hektar maydon uchun o‘rtacha bozor qiymatini - dehqon xo‘jaligini yuritish uchun realizatsiya qilingan yer uchastkalarining o‘rtacha narxidan kelib chiqqan holda avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritish hamda ushbu ma‘lumotlarni belgilangan muddatlarda yangilab borish choralarini ko‘rishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7.Farg‘ona tumani prokuraturasiga Qonun ijrosini ta‘minlashda aniqlangan qonunbuzilishi holatlarini bartaraf etish yuzasidan prokuror nazorati hujjatlarini qo‘llashni yo‘lga qo‘yish tavsiya etilsin.

8.O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Farg‘ona tuman bo‘limi (D.Xomidov), Ichki ishlar bo‘limi (J.Xasanov)larga:

kadastr organlari tomonidan xatlovdan o‘tkazishni jadallashtirish maqsadida viloyatdagi bino va inshootlarga kirish imkonini mavjud bo‘lmagan obyektlarda o‘lchov ishlarini to‘sinqiniksiz amalga oshirishda mahalla raislari va profilaktika inspektorlarini jalb qilish choralarini ko‘rsin.

9. “Vodil yog‘dusi” gazetasi (S.Dadaxo‘jayev), tuman hokimligi axborot xizmati (A.Ergashev)ga:

ushbu qarorning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy veb-saytlarda keng yoritish tavsiya etilsin.

10.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosarlari O.Abduraximov va M.Qodirxonov zimmalariga yuklansin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T